



@buxdu_uz



@buxdu1




@buxdu1




www.buxdu.uz

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

2/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



2/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Касимова Н.Ф.	Когнитивные процессы восприятия оригинала в процессе перевода	3
Abdullayev X.D.	Romanda qahramon psixologiyasi	7
Dedakhanova D.T., Uktamova N.N.	Jeyms Oldridjning “Spit mak-phining haqiqiy hikoyasi” romanidagi qahramon taqdiriga muallifning munosabati	12
Marupova M.U.	“The pen mightier than sword”- social satire in Jonathan Swift’s “A modest proposal,,	16
Isakjanova Sh.M.	Abduvali Qutbiddin ijodida vatan va istiqloq madhi	23
Pardayeva G.B.	Bureaucracy in Kafka’s literary work	27
Adigezalova M.N.	Chronotope in the works of Huseyn Javid	32
Ahrorova N.A.	English mythologemes: a multifaceted exploration	37
Hayitov Sh.A., Shoyimova G.Sh.	Ilk dehqon obrazi	41
Ibragimova G.R.	The philosophical concept of the tree in J.R.R. Tolkien's works	46
Kaxarova M.Y.	A literary analysis of Jack London’s “Martin Eden”	50
Khayrullayeva N.N.	Ecological writing in modern american and modern uzbek literature: a comparative analysis	57
Mustoqova S.U.	O.Genrining “The gift of magi” (“Sehrgarlar tuhfası”) hikoyasida metakognitsiya tushunchalarini asoslash	61
Ramazonova G.Ch.	O‘zbek nasrida evrilish shakllari	66
Samiyeva D.K.	Folklor motivlari orqali milliy ruhni aks ettirish: Pushkin va H.Olimjon dostonlari tahlili	70
Raximova G.A.	Ferdinand Dyushenning “Tamilla” asarida ayol obrazi ifodalanishining ijtimoiy xususiyatlari: metamorfoza va transformatsiya	74
Xajiyeva F.M., Sharipova P.Sh.	Tara Kempbelning mitti hikoyalarida minimalizm va chuqur ma’no uyg‘unligi	78
Shirinova D.H.	Hazrat Navoiyning “Dil daftari” xususida	83
Turakulova U.A.	Tohir Malikning “Charxpalak” qissasida qo‘llangan o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari	87
Xayrulloeva S.L.	Travmatik realizmning badiiy adabiyotda janr sifatida shakllanishi	92
Зиёдуллоева А.А.	Красный как кровь, белый как снег, черный как ворон: цветовые символы женственности в мифах и сказках	96
Artikov A.X.	The features and classification of allusion (literary and poetic	100

	allusion)	
Musaev I.X.	Zamaxshariyning "Al-Mufiyd" asarida noto'g'ri fe'llarning zamonlarda o'zgarish mezonlari	104
NAVOIY GULSHANI		
Turayeva M.T.	«Odamki bashar nasli silkiga erur payvand»...	109
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Жаҳонов Т.Х.	Шимолий Бақтриянинг кушонлар даври муҳофаа иншоотлари борасида айрим мулоҳазалар (буржлар мисолида)	113
Кличев О.А.	Бухоро қўшбеги девонхонаси дафтарларининг таҳлили	119
Toshpo'latov M.Z.	Uchquduq tumani yoshlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning tarixiy tahlili (2017-2024)	124
Narziyeva R.R.	“Xan daryosi bo'yidagi mo'jiza” yoxud “Koreys mo'jizasi”ning yaratilish asoslari	132
Fozilov M.A.	Uchinchi renessans poydevorini yaratishda jadidchilik siyosiy harakatining roli	137
Hayitov Sh.A., Elmurodova N.B.	1977-1978-yillarda “vatan” jamiyatining xorijdagi o'zbeklar va ularning uyushmalari bilan aloqalari tarixidan (arxiv manbalari asosida)	141
Abdullayeva D.A.	Tarixiy yodgorliklar muhofazasi va ularni ta'mirlash amaliyoti tarixidan	146
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
To'ychiyeva R.A.	Hindiston tashqi siyosatining asosiy tamoyil va yo'nalishlari	151
Shukurov A.K.	O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslari	166
Xodjimuratova D.S.	“Veloyate Fakih” Eron teokratik boshqaruv modelining asosi sifatida	174
Усманова Х.Х.	Национальная стратегия целей устойчивого развития Республики Узбекистан и многостороннее сотрудничество	180
Musayev M.T.	Missionerlikning noan'anaviy ko'rinishlari va ularni namoyon bo'lish shakllari	184
Turdiyev B.S.	Yangi O'zbekiston davlat siyosatini amalga oshirishda rivojlanish strategiyalarining roli	189
MUNOSABAT *** REFLECTION *** ТОЧКА ЗРЕНИЯ		
Ahmedov A.R., Axmadov A.H.	Buxoroni sharif qilgan adiblarga xiyobon qilsak	196

YANGI O‘ZBEKISTON DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA RIVOJLANISH STRATEGIYALARINING ROLI

Turdiyev Bexruz Sobirovich,

Buxoro davlat universiteti ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası professori

b.s.turdiyev@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston davlat siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan “2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi”, “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi”ning ahamiyati tahlil etilgan. Ushbu strategiyalarning mamlakat demokratik rivojlanishi, sud-huquq tizimi islohotlari, iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilayotganligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari, inson huquqlarini himoya qilish, majburiy mehnatga barham berish hamda sud-huquq islohotlarining natijalari yoritib berilgan. Rivojlanish strategiyalarining Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalq farovonligini oshirish va davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan istiqbolli islohotlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, mamlakat, taraqqiyot, jamiyat, davlat, sud-huquq tizimi, siyosat, qonun, inson huquqlari, xavfsizlik, tendensiya.

РОЛЬ СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ В РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируется значение стратегий, сыгравших важную роль в формировании государственной политики Узбекистана, а именно: «Стратегии действий на 2017–2021 годы», «Стратегии развития на 2022–2026 годы» и «Стратегии «Узбекистан – 2030». Рассматривается влияние этих стратегий на демократическое развитие страны, реформирование судебно-правовой системы, экономический рост и социальный прогресс. Кроме того, в статье изучаются принципы открытости и подотчетности в государственном управлении, защита прав человека, искоренение принудительного труда, а также результаты судебно-правовых реформ. Особое внимание уделено перспективным реформам, направленным на построение Нового Узбекистана, повышение благосостояния населения и повышение эффективности государственного управления.

Ключевые слова: стратегия, страна, развитие, общество, государство, судебно-правовая система, политика, закон, права человека, безопасность, тенденции.

THE ROLE OF DEVELOPMENT STRATEGIES IN THE IMPLEMENTATION OF THE STATE POLICY OF NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the significance of strategies that have played a crucial role in shaping Uzbekistan’s state policy, namely the “Action Strategy for 2017–2021”, the “Development Strategy for 2022–2026”, and the “Uzbekistan–2030 Strategy”. The impact of these strategies on the country’s democratic development, judicial and legal system reforms, economic growth, and social progress is examined. Additionally, the article explores the principles of transparency and accountability in public administration, the protection of human rights, the eradication of forced labor, and the outcomes of judicial and legal reforms. Special attention is given to forward-looking reforms aimed at building New Uzbekistan, improving the well-being of the population, and enhancing the efficiency of public administration.

Keywords: strategy, country, development, society, state, judicial and legal system, policy, law, human rights, security, trends.

Kirish. 2017-yilga kelib, O‘zbekiston davlat siyosatini jahon taraqqiyotiga moslashtirishni ta’minlovchi Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilishiga asos bo‘ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda demokratik islohotlar, siyosiy yangilanish va transformatsion o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu rivojlanish strategiyasining jamiyat siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarga olib kelganligini tahlil qilishdan oldin strategiya tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.

Strategiya (yunon. strategia, stratus – qo‘shin + ago – boshlab boraman) dastlab harbiy yo‘nalishda ishlatilib, raqib ustidan g‘alabaga erishish uchun harbiy jarayonlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan. Strategiya buyicha buyuk usta Sun-Szi (eramizdan avvalgi 544-496 y.) shunday deb yozgan: “Lashkarboshi bu: donishmandlik; halollik; rahmdillik; mardlik; qat‘iyatlilik demak” [1.26]. Strategiya, bu – kelajak va noma‘lumlik parokandaligi orqali sinovdan o‘tgan ustuvorlik va maqsadlar sari yo‘l boshlovchidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola tadqiqotida O‘zbekistonning rivojlanish strategiyalari, xususan, 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi” falsafiy-nazariy yondashuv, sistemali yondashuv, ma‘lumotlar tahlili, taqqoslash usuli asosida tadqiq qilingan. Davlat boshqaruvi, inson huquqlari, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat sohalaridagi islohotlar jarayoni tahlil qilinib, O‘zbekistonning demokratik va ijtimoiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan baholandi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ham mamlakatimizning 2017-2021- yillardagi taraqqiyot omillari, hayotiy ehtiyoj va tamoyillarini o‘zida ifoda eta oldi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoniga muvofiq, Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi, mamlakatimiz jamiyat siyosiy tafakkuri yangilanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Rivojlanish strategiyasi jamiyat siyosiy tafakkurini o‘zgartirish uchun uchta komponentdan iborat bo‘lgan tizimli strukturaviy shaklga ega bo‘ldi.

Birinchidan, strategik maqsad – mamlakatimizni yanada rivojlantirish maqsadi;

Ikkinchidan, strategik yo‘nalish – strategik maqsadni ta‘minlaydigan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishlari” [2].

Uchinchidan, strategik harakatlar – mamlakatimizni yanada rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishini amalga oshirishni ko‘zlagan chora-tadbirlar kompleksi.

Jadal islohotlar jamiyat hayotidagi barcha jabhalarni, jumladan, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimi, ma‘naviy hayot, iqtisodiyot va siyosat, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni qamrab oldi. Bir so‘z bilan aytganda, 5 yil davomida erishilgan yutuq va natijalarga nazar tashlasak, bugun biz butunlay yangicha jamiyat siyosiy manzarasi shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. Xullas, mamlakatimizda rivojlantirish strategiyasi va jamiyat siyosiy tafakkurining yangilanishi jarayonida quyidagilarga erishildi:

birinchidan, davlat va jamiyat boshqaruvini rivojlantirish sohasida xalq bilan muloqot yo‘lga qo‘yilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va xalq qabulxonalari tashkil etildi. 2017-2021- yillar davomida 6 milliondan ziyod murojaat tushib, shundan 3 milliondan ortig‘i o‘z yechimini topdi. Shuningdek, aholini ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish bo‘yicha “Mahalla – Sektor – Xalq qabulxonasi – Mahalla” tizimi joriy etildi. Davlat rahbarlari va aholi o‘rtasida muntazam qabul va uchrashuvlar tashkil etilib, ularning muammolari ijobiy hal etilishiga olib keldi.

Davlat boshqaruvi tizimi takomillashuvga erishilib, ular faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, ularning jamiyat oldidagi hisobdorligiga erishildi. Davlat boshqaruvi sohasini isloh etish jarayonida davlat xizmatlari aholi uchun qulay, ortiqcha byurokratik to‘siqlardan xoli, operativ tizimni yaratish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, bu borada aholi va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlat xizmatlari markazi tashkil etilib, my.gov.uz portali orqali 250 turdagi davlat xizmatlaridan foydalanish tizimi joriy etildi [3].

Yurtimizdagi Oliy Majlisning davlat va jamiyat hayotidagi roli yangi bosqichga ko‘tarilib, “Hukumat soati” o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Demokratik saylovlarni o‘tkazish tizimi sohasida muhim yangiliklardan biri Saylov kodeksi qabul qilinishi bo‘ldi. Mamlakatimizda ekologik partiya tashkil etilib, saylovda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning saylovlarda ishtirok etishi huquqi berildi [4.9].

Umuman olganda, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi yuqori baholanib, 2019 yilda Buyuk Britaniyaning “The Economist” nashri O‘zbekistonni “Yil mamlakati” deya e‘tirof etdi. Shu bilan birga, mamlakat BMTning elektron hukumat reytingida 87-o‘rinni band etdi [5.26].

ikkinchidan, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida mamlakatimizda olib borilgan islohotlar natijasida qonun ustuvorligini ta‘minlash orqali odil sudlovga erishish sohasida katta yutuqlarga erishildi. Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash sohasida mamlakatimizda majburiy mehnatga barham berildi [6]. Bolalarning majburiy mehnatiga yo‘l qo‘yganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Parlamentning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) va Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu borada, mamlakatimiz XMTning bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashga doir konvensiyasiga qo‘shildi.

Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari milliy qonunchiligimizda o‘z ifodasini topdi. Buni yurtimizda inson huquqlarining ta‘minlanishi, mamlakatimizning xalqaro obro‘si va imidjining ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Natijada, O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga birinchi

marta 3 yillik muddatga saylandi. “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko‘krak nishoni joriy etildi [7] hamda Bosh Prokuratura Akademiyasi huzurida “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq” magistratura yo‘nalishi va yurtimizda 12.00.13 – “Inson huquqlari” bo‘yicha PhD va DSc ixtisosliklari tashkil etildi. Mamlakatimizdagi inson huquqlarining ta‘minlanishi holati esa yurtimizda madaniyatlararo muloqot, xorijiy investitsiya va ilg‘or tajribalar yaratilishi uchun shart-sharoit yaratib bermoqda. Mamlakatimizda mahkumlarning sha‘n va qadr-qimmatining kamsitilishi va qonuniy manfaatlarining cheklanishiga yo‘l qo‘yilmasligi borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimizda 2019- yilda “Jasliq” 19-son ixtisoslashtirilgan koloniyasining tugatilishi Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq davlatimizning xalqaro maydonda ijobiy mavqeini ilgari surishga xizmat qildi [8.51]. Bunga qadar 2019- yilda ham ikkita qamoqxona yopilgan. Ana shunday gumanistik siyosat tufayli qisqa davrda mahbuslar soni ikki barobar kamayishiga erishildi [9.8]. Shuningdek, Ombudsman huzurida qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini faoliyati ish boshladi. Xullas, rivojlanish strategiyasida qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini kafolatlash va odil sudlovga erishish sohasida ulkan yutuqlarga erishildi.

uchinchidan, iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida mamlakatimizda erkin valyuta bozoriga erishish, milliy va xalqaro iqtisodiy tizimlarning integratsiyasi kuchayishi va bunda davlat ishtirokini kamaytirish, qishloq xo‘jaligining isloh etilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish sohasida yuqori natijalarga erishildi.

Monitar siyosat sohasida 2017-yil 5-sentyabrdan milliy valyuta – so‘mni erkin ayirboshlash tizimiga o‘tildi hamda valyutani tijorat banklaridan naqd shaklda yechib olish, avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash shahobchalari tizimi joriy etildi.

Harakatlar strategiyasi natijasida byudjet – soliq sohasi yangi bosqichga chiqdi desak adashmaymiz. Chunki soliq turlari 13 tadan 9 taga, soliq tekshiruvchilari turlari esa 13 tadan 3 taga qisqartirildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 12 foiz miqdorda belgilab olindi.

Yurtimizda qulay investitsion muhitni yaratish maqsadida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, davlat byudjeti ijrosi, xalqaro investitsion pozitsiya va oltin valyuta zaxiralari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar oshkorligi ta‘minlandi. Mamlakatimizda Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqarish bo‘yicha maxsus umtiyozlar tizimi kuchga kirdi [10.12]. Rivojlanish strategiyamizdagi muhim yutuqlardan yana biri bu biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish va uni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish sohasida kuzatildi. Jumladan, 5 yil davomida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 2 mingga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu islohotlar natijasida, rejadan tashqari va muqobil tekshirish tizimi bekor qilindi. Tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziya va ruxsat berish shartlari qisqartirilib, soddalashtirildi. Shuningdek, iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlari turizm, elektr energiyasini ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlantirildi. Bu borada, yurtimizda turizm iqtisodiyotimizning strategik sektori maqomini oldi va ichki va ziyorat turizmini rivojlantirishga doir islohotlar amalga oshirildi. Bunday yutuqlar natijasida, mamlakatimizda turizm sohasida erishilayotgan yutuqlar xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etildi. Xususan, BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan turizm sanoati eng tez rivojlanayotgan 20 ta mamlakat ichida 4-o‘rinni egalladi [11.64]. 2019 yilda “New York Times” nashri 52 ta tashrif buyuradigan davlatlar qatorida O‘zbekistonni ham sayohat qilish uchun eng yaxshi mamlakatlar ro‘yxatiga kiritdi [12]. O‘zbekistonda axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida katta qadamlar tashlanib, bu iqtisodiyot sohasini raqamlashtirish jarayonini boshlab berdi. Bu borada 2020-yil 5-oktyabrda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, uni bosqichma-bosqich hayotga joriy etishga kirishildi [13].

to‘rtinchidan, ijtimoiy sohada mamlakatimizda olib borilgan kuchli ijtimoiy siyosat bozor islohotlari milliy modelini yangi bosqichga olib chiqishiga turtki bo‘ldi. Bu borada aholi daromadlarini tartibga solish, bandlik va mehnat munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy himoya tizimi va aholining ayrim qatlamini qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, ta‘lim, jismoniy tarbiya va sport sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi. Natijada, mamlakatimiz aholisi ish haqining oshishi, kam ta‘minlangan ehtiyojmand oilalarni himoya qilinishi ularni mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga faol ishtirok etish va inson resurslarini faol yo‘lga qo‘yilishi uchun zamin yaratdi. Birinchi navbatda, aholini bandligini ta‘minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga doir olib borilgan chora-tadbirlar natijasida 16 ta “Ishga marhamat” monomarkazlari, 27 ta kasb-hunarga o‘qitish markazlari, 136 ta mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlari hamda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) ishtirokida tashkil etilgan 3 ta kasb-hunarga o‘qitish markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi [14.15]. Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, pensiya to‘lovining yuqori chegarasi BHMning 8 baravaridan 10 baravariga oshirilib, barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarini to‘liq olish imkoniyati yaratildi. Davlat byudjetining ijtimoiy himoya uchun ajratadigan

xarajatlari 2 baravarga ko'paydi. Respublikamizning barcha hududlarida ehtiyojmand ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizim orqali aholining bandligini ta'minlash, o'zini o'zi band qilganlar uchun soliq imtiyozlari berildi.

Harakatlar strategiyasining izchil amalga oshirilishi yurtimizda turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro do'stlik va hamjihatlik va diniy bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi bilan Bosh Assambleyaning 2018-yil 12-dekabrda yalpi majlisida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining qabul qilinganligi muhim yangiliklardan biri bo'ldi. Bu islohotlar samarasini yurtimizda 30-iyulning "Xalqlar do'stligi kuni" sifatida nishonlanishi va "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni ta'sis etilganligi misolida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik holatni yaxshilash maqsadida Harakatlar strategiyasi doirasida izchil ishlar olib borildi. Jamiyat siyosiy tafakkurida fuqarolarda ekologik masalalarning tobora globallashib borayotganligiga e'tibor qaratilib, ularning atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat va ta'lim-tarbiya va ekologik ma'rifatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratildi. Orolbo'yi hududini 2017-2021- yillarda rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqilib, BMT huzurida Orol dengizi mintaqasida inson xavfsizligi bo'yicha "Trast" fondi ta'sis etildi. Orolning qurigan qismida qum va changlarning ta'sirini kamaytirish maqsadida "yashil qoplamalar" – himoya o'rmonzorlari barpo etish va Orolbo'yi aholisi hayotini yaxshilash borasida keng ishlar amalga oshirildi.

Yurtimizda 2017-2021- yillar amalda bo'lgan Harakatlar strategiyasining izchil mantiqiy davomi bo'lgan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasidan asosiy ko'zlangan maqsad – Yangi O'zbekistonni barpo etishdir. Yangi O'zbekistonni barpo etish, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev uqtirganlaridek, "bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir" [15.3]. Nega deganda, ushbu strategik maqsad va vazifalarning ro'yobga chiqishi nafaqat mamlakatimizning bugungi kunini, shuningdek, istiqbolimizni ham belgilaydi, yurtimizda amalga oshirilayotgan konstruktiv islohot va yangilanish falsafasiga ijtimoiy mazmun bag'ishlaydi.

Mamlakat hayotining barcha yo'nalishlari singari jamiyat siyosiy tafakkurini o'zgartirmasdan turib yangi taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Biz bu yo'ldan borar ekanmiz, jamiyat siyosiy tafakkurida dinamik o'zgarishlar orqali yangi taraqqiyot bosqichiga chiqish bo'yicha dastlabki 2017-2021- yillarda jamiyat va davlat hayotini tubdan yangilash, jamiyatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdik. Bu islohotlar samarasi natijasida xalqimiz jamiyat siyosiy tafakkuri yangilanishiga katta ishonch bilan qarayotgani, ularning yutuqlaridan bahramand bo'lishni xohlayotgani hisobga olinib, yurtimizdagi xalqparvar siyosatning uzviyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan prinsip 2022-2023- yillarda unutilmas yangiliklarga boy bo'ldi. Bu prinsiplar quyidagi 7 ta ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan maqsadlarda o'z ifodasini topdi:

- 1) inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish
- 2) mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish
- 3) milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash
- 4) adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish
- 5) ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish
- 6) milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish
- 7) mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish

1-jadval. Taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishlari

Mamlakatimizda 2022-2023- yillarda ushbu ustuvor yo'nalishlarda xalqimiz o'zining kuch-g'ayratini birlashtirib, mamlakatimiz rivojlanishi uchun islohotlarimizni hayotga tadbiq etish, ko'zlangan maqsadlarga erishish va mamlakatimizni jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga chiqishi uchun bahamjihat bo'ldi. Albatta, ushbu sobitqadamlik bilan yo'lga qo'yilgan islohotlar erishilgan yutuqlarimizda o'z ifodasini topdi. Bu yutuqlarimizning sababi o'tgan 5 yilda Rivojlanish strategiyamiz jarayonida orttirilgan milliy tajribamizdan kelib chiqib, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasida o'z ifodasini topdi.

Ushbu konstruktiv maqsadlardan kelib chiqib, 2022- yil mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili", deb e'lon qilindi hamda 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" [16] da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ishlab chiqildi. "Yangi O'zbekistonning 2022-2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" va uni 2022- yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasining ishlab chiqishda jamoatchilik tomonidan 15 mingdan ortiq taklif va tavsiyalar kelib tushdi [17.3]. Bu faollik, jamiyat dunyoqarashi va tafakkurining o'zgarganligi, fuqarolarning siyosiy faolligi va pozitsiyasining yuksalganligini ko'rsatdi.

Mazkur hayotbaxsh va xalqchil islohotlar tub zahirida aniq va rejali maqsad, qat'iyat va kuchli ijtimoiy siyosat mujassam ekanligining guvohi bo'lyapmiz. Xususan, 2023- yil 30- aprel mamlakatimizda o'tkazilgan umumxalq referendumida umumxalq ovoz berish orqali yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz yangi taraqqiyot yo'lini yanada yuksak bosqichga olib chiqish uchun tamal toshini qo'ydi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo'lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur hujjat yurtimiz taraqqiyotining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohalarini takomillashtirish, ulkan islohotlarni yangi boshqichga olib chiqish uchun dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Yangi tahrirdagi Bosh qomusimiz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023- yil 11-sentyabrda imzolangan "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida" [18]gi farmon hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023- yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorga tayanch vosita bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. Mazkur strategiya barqaror rivojlanish milliy maqsadlari va vazifalariga to'liq mos kelib, uni amalga oshirish uchun o'ziga xos "yo'l xaritasi" vazifasini o'taydi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mana shunday huquqiy asosda "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasi qabul qilinib, mazkur strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang bo'lib, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "biz o'z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to'la va qat'iy bajarmoqdamiz" [19].

"O'zbekiston - 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari:

1) Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

2) Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;

3) Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish;

4) Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

5) Mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish.

Mazkur 5 ta yo'nalish va 100 ta maqsadni o'zida jamlagan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatimiz Taraqqiyot strategiyasini hayotga tadbqiq etish jarayonida orttirilgan tajriba, yutuqlar va keng jamaotchilik muhokamasi hosilasi sifatida yuzaga kelganligi bilan diqqatga sazovor. Shu ma'noda, ushbu yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi xalqchil va xalqona dasturulamal hujjatdir.

Ta'kidlash joizki, mazkur xalqchil strategiya mamlakatimizda keying 7 yil davomida barqaror iqtisodiy rivojlanishimiz orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan joy olishi, jahon standartlari va aholi talab va ehtiyojlariga muvofiq keladigan sifatli ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yuksaltirish, fuqarolar uchun ekologik toza sharoitlarni yaratish, xalq manfaatini ko'zlaydigan adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatimiz xavfsizligi va suverenitetini kafolatli himoya qilish singari konstruktiv g'oyalarni o'z ichiga olgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda qabul qilingan davlat strategiyalari jamiyat siyosiy hayotini o'zgartirib, insonlar siyosiy tafakkurida kelajakka ishonch hamda uzoq muddatli rejaning samarali amalga oshishiga mas'ullik hissini uyg'otmoqda. Strategiya doirasida erishilayotgan dastlabki yutuqlar mamlakatimiz taraqqiyotini jadallashayotganligi va fuqarolar hayoti uchun yangi ufqlar ochayotgan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ushbu strategiya nafaqat milliy darajada dolzarb, balki barqaror rivojlanish maqsadlarining mazmuniga integratsiyalashganligi bilan ham qimmatlidir. Shu ma'noda, mazkur hayotbaxsh strategiya jahon hamjamiyati oldida yangi O'zbekiston pozitsiyasi va imijini yanada mustahkamlashga va yurtimizda inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Квинт В.Л. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. -Тошкент: Тасвир, 2018. -160 б.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son.
3. Yagona portal missiyasi // <https://my.gov.uz/oz/service/services-list-card>
4. 2017 - 2020 Ўзбекистон республикасини ривожлантиришининг бешикта устувор йуналишлари буйича ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишининг оралик натижалари (Масъул муҳаррир: Раджабова У.). -Тошкент: Baktria press, 2021. - 68 б.
5. O'zbekistonda 2017 – 2021- yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi natijalari. Factbook. -Toshkent: Baktria press, 2021. - 158 б.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 10-maydagi "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018-y., 09/18/349/1205-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 3-noyabrdagi "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 685-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2020-y., 09/20/685/1449-son.
8. Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. Монография. –Т.: "Lesson Press", 2023. - 128 б.

9. Саидов А. Карвон йўли. -Тошкент: Маънавий ҳаёт, 2019. –№3. –Б.8.
10. Harakatlar strategiyasi bilan 5 yil. –T.: “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, 2022. -B.12.
11. O‘zbekistonda 2017 – 2021- yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi natijalari. Factbook. -Toshkent: Baktria press, 2021. - 158 б.
12. 52 Places to Go in 2019 // <https://www.nytimes.com/interactive/2019/travel/places-to-visit.html>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son.
14. Harakatlar strategiyasi bilan 5 yil. –T.: “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, 2022. -B.15.
15. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 б.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
17. 2022- yilda “Taraqqiyot strategiyasi” markazining amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti. - T.: “Taraqqiyot strategiyasi”, 2022. – 28 б.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 11- sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023- yil 20- sentyabr, №197 (8540).
20. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.